

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKDAN SO'NG AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING PEDAGOGIK TALQINI.

Abduhamidov Jaloliddin Ilash o'g'li.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix o'qituvchisi.

Ramazonova Sevinch Sodiq qizi.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yunalishi 1 - bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqoladan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganiga qadar bosib o'tgan yo'llarini va mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan islohotlarni o'rganishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: islohot, mustaqillik, SSSR, 31-avgust, prezident, taraqqiyot, ilm.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguncha ko'pgina qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Sobiq sovet tizimi davrida o'zbek aholisidan faqat ishchi kuchi sifatida foydalanishgan. U davrda insonning qadri ham bir buyumdek qaralgan. Eng achinarlisi bizning yer osti boyliklarimizni o'z hududlariga olib ketishgan. Kimda kim ozodlik haqida yozishsa yoki unga xarakat qilishsa eng birinchi ish ularni o'limga hukm qilish deb bilishgan va buni amalga oshirishgan ham. Qanchadan qancha ayollar beva, millionlab farzandlar esa yetim qolishgan. Ayollar farzandlarini katta qilish maqsadida og'ir ishlarni bajarishga majbur bo'lganlar. Biz mustaqillikka muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov sharofati bilan erishdik. Bu mustaqillik qanchadan qancha mehnatkash va fidokash vatanparvar insonlar sharafiga qo'lga kiritildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillikning birinchi kunidayoq birinchi prezidentimiz Islom Karimov mustaqil davlatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish uchun kuchli harakatni boshlab yubordi. Ya'ni davlatni huquqiy, iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni maqsad qilib oldilar. Buning uchun birinchi qadam sifatida savdo sotiq ishlarini yo'lga qo'ydilar.

Asosiy qism:

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb 1991-yil 31-avgustda e'lon qilindi. Bu esa butun O'zbekiston xalqining quvonchiga sabab bo'ldi. Endi O'zbekiston mustaqil davlatlar qatorida qarala boshlandi. Islom Karimov tomonidan gerb, madhiya, bayroq kabi davlat ramzlari e'lon qilindi. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruv hokimiyati tubdan o'zgartirildi. Sobiq ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O'zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi Ministrlar sovetining maqomi o'zgartirildi. 1990-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasida prezidentlik lavozimi joriy etildi va bu lavozimga Islom Abdug'aniyevich Karimov

loyiq deb topildi. O'zbekiston Respublikasi huquqiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun 1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiya yaratildi. Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasining tarkibi Prezidenti tomonidan tuzildi. Vazirlar mahkamasining a'zolari qatoriga Bosh vazir va uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitasi raislari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi kiradi. O'zbekiston Respublikasi hukumati Vazirlar mahkamasi hisoblanadi. Ular ijro etuvchi hokimiyatdir. O'zbekiston Respublikasi qonun doirasida talay ishlarni amalga oshirdi va vatan rivojlanish uchun turli islohotlarni amalga oshirdi. "Islohot - islohot uchun emas avvalo inson uchun" nomli shior ostida köpgina yangiliklar yaratildi. Bularning yaqqol misoli sifatida "Obod mahalla yili" va yana bir qancha yil nomlarida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat etib e'lon qilingandan söng ta'lim tizimiga kuchli e'tibor qaratildi. Maktablar 11 yillik tizimdan 9 yillik tizimga o'tkazildi va 3yil davomida majburiy kollej yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga chet qishloqlarda ham maktablar ochildi, hamda ta'limning bepul ekanligi barcha teng huquqli ekanligi konstitutsiyada qat'iyon belgilab qo'yildi. Bu islohotlardan birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ilmga chanqoq inson deb xulosa qilishimiz mumkin. Buning bilan prezidentimiz yoshlarni bepul hunarli va kasb korli bölishlarini ta'minlab berdilar. O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan so'ng yo'lga qo'ygan eng muhim ishlaridan biri bu - bozor iqtisodiyoti. Biz hatto rivojlangan davlatlar bilan ham eksport va import ishlarini yo'lga qo'ydik. Undan tashqari viloyat, tuman, mahalla kesimida jamg'armalar tashkil etildi. "Mahalla" jamg'armasi asosida shu mahallada istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarga yordam pullarini berish yo'lga qo'yildi. Bu esa birinchi prezidentimiz va xalqimizning qanchalik samimiy ekanligining yaqqol misolidir. Aynan mahalla borasida "Obod mahalla dasturi" yo'lga qo'yildi. Bu dasturning asosiy maqsadi mahallalarda kichik va katta bizneslarni yo'lga qo'yush, tadbirkorlik ishlari va o'zini o'zi band qilish kabi islohotlarni amalga oshirishdir. Insonning eng katta boyligi bu - uning sog'ligi. Shu borada birinchi prezidentimiz "Sog'lom avlod yili", "Sog'lom ona va bola yili" kabi bir qancha nomlarga urg'u bergan holda " Har kim tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish huquqiga ega" deb konstitutsiyada qonuniy belgilab qo'yidilar. Mustaqillikdan so'ng inson qadri ulug'lana boshladi. Xalq inson faqatgina mehnat uchun yaratilmaganligini anglab yetdi. Xaqiqiy ozodlikni his etdi. Qora kunlarni unutib yorqin kelajak sari shahdam qadamlar bilan olg'a harakat qilishga o'zlarida o'zgacha kuch topdilar. Muhtaram birinchi prezidentimiz o'z nutqlarida " Biz Mustaqillikka kuchli mehnat va mashaqqatlar evaziga erishdik. Biz uni asrab avaylashimiz kerak. Farzandlarni esa vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash lozim" deb ta'kidladilar.

Xulosa: Ushbu maqoladan shuni xulosa qilishimiz lozimki, biz mustaqillik natijasida ko'p narsalarga erishdik. O'zligimizni va qadr qimmatimizni topdik shunday

ekan uni ko‘z qorachig‘imizdek asrab avaylashimiz va kelajak avlodga meros sifatida qoldirishimiz lozim. Erkinlik insonniga ko‘p narsa beradi, erkin qiladi. Mustaqillik sababli xalqimiz erkin fikrlaydigan bo‘ldilar . Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ota - onalar va o‘qituvchi, tarbiyachi pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1- Erkayev A. "O'zbekiston yo'li" Toshkent Ma'naviyat 2011.
- 2- Karimov A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q" 1998.
- 3- O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali 1996.